



CONFERENCE OF
TURKEY



IN VOLUME #1
ISSUE#2
FEBRUARY

2023



SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION



www.woconferences.com

Google Scholar



OpenAIRE



digital object
identifier



OPEN ACCESS

EDITORIAL

Editor: Ralf Schlauderer

***Professor, Weihenstephan-Triesdorf University of Applied
Sciences, Germany***

admin@geniusjournals.org

Editor: Henry Matthews

Professor, Writtle University College, UK

admin@geniusjournals.org

Editor: Jacques Bulchand-Gidumal

***Associate Professor of Digital World. TIDES. University of
Las Palmas***

admin@geniusjournals.org

Editor: Milen Filipov

***Assistant Professor of Public Relations, KIMEP University,
Republic of Kazakhstan***

admin@geniusjournals.org

Editor: Rosa M. Batista Canino

***Vice rectorado de Empresa, Emprendimiento y Empleo,
ULPGC***

rbatista@dede.ulpgc.es

Editor: Farhod Ahrorov

***Professor, Samarkand Veterinary Medicine Institute,
Uzbekistan***

admin@geniusjournals.org



Editor: Nooraini Youp

**Open University Malaysia, Director Taiping Learning Center,
Doctor of Philosophy in Management**

nooraini_youp@oum.edu.my

Editor: Hadion Wijoyo

**Associate Professor, High School Informatics, and Computer
Management Dharmapala Riau, Indonesia**

hadion.wijoyo@lecturer.stmikdharmapalariau.ac.id

Associate Professor, University of Molise

fradivi@unimol.it

Editor: Makhabbat Ramazanova

**Assistant Professor at Universidade Portucalense (UPT), PhD
in Tourism**

admin@geniusjournals.org

Editor: Dr.M. Ihsan Dacholfany, M.Ed

**Asist.Prof, Managemen Education and Islamic Education,
Ahmad Yani Street, No.162, Rt: 34.Rw: 16. Iring Mulyo Metro
City, Lampung Indonesia**

Email: mihsandc@ummetro.ac.id

Editor: Prof. Dr. VASA, László

Széchenyi István University, Hungary

admin@geniusjournals.org



№	TABLE OF CONTENTS	
1	BUGUNGI KUNDAGI INSON ORGANIZMIDA KO'PLAB UCHROVCHI OSHQOZON ICHAK YARA KASALLIKLARINI BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI Xonov Alaviddin Shoxo'jayevich, Ulashova Dildora Azamat qizi, Aminova Mohinur Normurod qizi, Rasulova Nafisa Alisher qizi, Ergasheva Shohsanam Samariddin qizi	6
2	MAMLAKATIMIZDA OZIQ-OVQAT SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI Ishonova Selbi, Xidirboyeva Sevara	12
3	O'T SUYUQLIGINING SIFATINI PASAYTIRADIGAN OMILLAR Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li., Ne'matjonov Abduvahobjon Maqsudjon o'g'li	16
4	ELEKTROMAGNIT MAYDONNING ORGANIZMGA TA'SIRI Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li Yo'ldoshev Firuz Jaloliddinzoda	20
5	СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ. Маматкулов Равшанжон Солижонович Нурматов Самандар Махмуд угли	24
6	YOSH FUTBOLCHILARNING TEZKORLIK VA TEZKOR-KUCHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI HAQIDA Xaitmetov.F.R, Abjalolov .T.U	30
7	YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O'RTA T'ALIM MAKTEBLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O'RGATISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI Xusanboyev.A.N , Turtbayev.A.E	36
8	БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАЗМУНИ ВА ТАМОИЛЛАРИ Одилов Отабек Норбоевич ,Хайриддинова Наргиза Шахобиддин қизи	41
9	BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATLARIDA INNOVATSION YONDASHUV Boltayev Shamshodjon Elmurod o'g'li Turtbayev Anarbek Egamqul o'g'li	46
10	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAkatLI O'YINLARNI AHAMIYATI Yusupbayeva Amangul Saparbayevna Pardabayeva Madinabonu Saydulla qizi	51
11	JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING UMUMIY TAMOIYILLARI VA NAZARIY ASOSLARI	57

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY
RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARNI AHAMIYATI**

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Jismoniy madaniyat metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi,

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi (XQS) 22/1 guruh talabasi:

Pardabayeva Madinabonu Saydulla qizi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolani hayotga tayyorlash vositasi sifatida harakakatli o‘yinlarning ahamiyati ochib berilgan, harakakatli o‘yinlar mazmuni va jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi o‘rtasidagi munosabatlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: harakakatli o‘yin, hayotga tayyorgarlik, maktabgacha yoshdagi bolalar, harakakatli o‘yinlar mazmuni.

“Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori (09.09.2017-y.) “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017-y.) “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017-y.) qabul qilindi. Qabul qilingan me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini



joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv- metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqazo etadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish uchun nazariy va metodik bilimlarni egallashi g'oyat muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni tashkil etish va o'tkazish metodikasini tinglovchilar "Jismoniy tarbiya metodikasi" modulini o'zlashtirish orqali egallab boradilar.

O'yin bola hayotida muhim o'rin egallaydi va shuning uchun o'qituvchilar tomonidan ta'limning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi. Maktabgacha ta'lim amaliyotida turli xil o'yinlardan keng foydalaniladi: hikoya-rolli o'yin, didaktik, qurilish-konstruktiv, harakatli, davra raqsi va boshqalar. Biroq, o'yinlarning xilma-xilligi orasida, ayniqsa, barcha o'yinchilar faol vosita harakatlariga jalb qilinadigan harakatli o'yinlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'lad.

Milliy harakatli o'yinlarni mashg'ulotlar davomida qo'llash bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1,2,3].

Tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlari xayotda tadbqiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirishi, oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, xar xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish muqarrardir. Milliy xalq o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, baxshilarda keng qo'llangan bo'lib, ming yillar davomida



rivojlanib, tokomillashib kelgan. Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha etib kelgan o'zbek milliy xalq o'yinlari "Otda chopish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda otish", "Xo'roz jangi", "Besh tosh", "Sapalak", "Jambalak xola", "Kurash", "Kim tez o'raydi", "Chillak" kabi va boshqa o'yinlar orqali botirlik, epchillik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi qomatni shakllantirish, axloq odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog'liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv- metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqazo etadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish uchun nazariy va metodik bilimlarni egallashi g'oyat muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni tashkil etish va o'tkazish metodikasini tinglovchilar "Jismoniy tarbiya metodikasi" modulini o'zlashtirish orqali egallab boradilar.

O'zbek xalq o'yinlarni o'ziga xos urf odatlaridan, turmush sharaotlaridan, yashash iqlimi, tarixi obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llangan lekin shu vaqtgacha aksariyat mutaxassislar o'zbek xalq o'yinlariga alohida tasnif (klassifikatsiya) va tavsif (xarakteristika) berishni ko'zda tutmaganlar yoki etarli darajada ahamiyat bermaganlar[3].

O'zbek xalq o'yinlari klassifikatsiyasi. Hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: osilish va osilib chiqish: "Maymunchalar", "Oq ayiqlar"; yurish, yugirish: "Quvlashmachoq", "Mokki"; O'tirish-turish: "Baqa", "Tovuq va tulkilar"; to'xtash sakrash: "Qarmoqcha". Jismoniy sifatleri rivojlantiruvchi



o'yinlar: kuch: "Tortishmachoq"; tezkorlik: "Kun va tun"; epchillik: "To'p uchun kurash", "Lapta", "Qirq tosh", "Besh tosh"; chidamkorlik: "Quvib et"; egiluvchanlik: "Ko'prik va mushuk", "Kurash", "Sapalak", "Xo'roz jangi".

Aqliy–ruhiy qobiliyatlari rivojlantiruvchi o'yinlar: diqqat: "Ta'qiqlangan harakat"; xotira "Daqiqa"; hissiyot: "To'xta"; tafakkur: "Shaxmat"; ayyorlik "Mandan zo'r"; jasurlik "Cho'nqa shuvoq".

Uy-ro'zg'or ishlariga xos harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Supur supur", "Qovun uzatishi". Kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar: "Burgut va burgutchalar", "Otishma". Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o'yinlar: "Kim oladi", "Oq terakmi, ko'k terak", "Paxmoq kuchuk", "Jambalak sochli xola". Ma'lumki o'zbek xalq o'yinlari o'z ichiga harakat jihatidan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan. Shu bois ularni yo'nallishlari bo'yicha ajrata bilish zarur deb topiladi. Demak ularni tasniflash (klassifikasiyalash) zarur o'rinni egallaydi. Xisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Besh tosh", "Lanka", "Qirq osh". Yilning turli fasllarida qo'llanadigan o'yinlar: "Varrak", "Yomg'ir yog'oloq", "Chillak", "Topishmachoq top", "Tez ayt", "Yong'oq". Kunduz va tunda o'tkaziladigan o'yinlar : "Oq suyak", "Cho'loq qarg'a". Suvda o'tkaziladigan o'yinlar: "Suvda quvlashmachoq", "Tez suzish", "Suv ostida suzish".

Maktabgacha boshlang'ich guruxlari bo'yicha yoshdagi bolalarga harakatli o'yinlarni tanlab olishda ularning qiziqishini olish zarur. Bu yoshdagi bolalarni o'yinlardagi bo'ri - qo'zi, sichqon – mushuk qiyofasi surati nimalar qilishi qiziqitirmaydi aksincha ularning hatti – harakati masalan mushukning chaqqonlik bilan sichqonni sakrab ushlab olishi qiziqtiradi. O'yinlarada harakatalar murakkablashib boradi. Masalan: «Bo'rilar zovurda», o'yinda bolalar yugurib kelib to'xtab qolishi sichqonga sakrab, chaqqonlik bilan bo'rilarga tutqich bermasdan zavurdan o'tib ketishi kerak. Bu yoshdagi bolalarga, Shuningdek ikki tomon bo'lib o'ynash, qarama qarshilikning mavjud bo'lishi ko'proq qiziqarli masalan «ikki



yaxob» o'yinida bir tomon «yaxoblardir» bolalarni «yaxlatib» qo'yishga intiladi va boshqa tomon «yaxlatilib» qolishdan qochish harakat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hozircha o'zini yaxshi tuta bilmasligini e'tiborga olib guruhlarini ikki jamoaga emas balki 4-5 guruhlariga ajratib olish zarur. Bu guruhlar ketma –ket xolatda turmay bir birini yaxshi ko'rib turishi uchun o'ritib olishi ham mumin. Chunki navbati bilan startga chiqish tartibini saqlab turadilar. Bunday o'yinlarda bolalar bir –birini kuzatadi, Har bir guruhdan bitta ishtirokchi tezlikda, chaqqonlikda aniq nishonga olishda mahoratini ko'rsatadi. G'olib chiqqon o'yinchi o'z jamoasiga achko keltiradi. O'yin tugugandan so'ng to'plagan achko hisoblanib ko'riladi. Eng ko'p achko to'plagan jamoa g'olib deb topiladi. Tarbiyachi bolalarning charchaganligiga tashqi ko'rinishiga (tez-tez nafas olishi, yuzining qizarib ketishi) xulqiga (tez-tez qoida buzishlar, qo'pollik, lanjlik)lariga e'tibor berishi va o'z vaqtida o'yinni to'xtatishi lozim. O'yin har xil tugallanishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarni o'yinning o'zigina emas, balki natijasi ham qiziqtiradi. Shu bois har bir o'tkazilgan o'yindan keyin uning natijasini tahlil qilish lozim. O'yinda qaysi bir o'quvchi chaqqonlik, epchillik mahoratini ko'rsatgani, do'stona qo'llab o'ynagani qoidaga rioya qilmaganligi to'g'risida aytib o'tish lozim. Har bir o'yin natijasini tarbiyachi o'ziga xos ravishda tushuntirishi, bolalar uchun chiroyli tahlil qilib berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz.
2. Yusupbayeva.A.S.Совершенствованийе педагогических механизмов формирования здорового образа жизни в дошкольном образовании на основе физического воспитания. «Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal. № 3 2020 y



3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zamova «Maktabgacha pedagogika» «Tafakkur» nashriyoti, Toshkent 2019
4. Yusupbayeva A. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarni tashkil etish usullari. «Xalq ta'limi» ilmiy-metodik jurnal. 2021 yil
5. B. T. Haydarov, G. X. Ibroimova, J. J. Kazimov «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi» Samarqand-2020

